

# Termizda mudofaa vaziri kubogining mahalla bosqichi bo'lib o'tdi



Termizda mudofaa vaziri kubogining mahalla bosqichi bo'lib o'tdi

Termiz shahrining "Alpomish" stadionida "Yangi O'zbekiston yoshlari, birlashaylik!" shiori ostida sportning milliy kurash va tosh ko'tarish turi bo'yicha 18 yoshdan 30 yoshgacha bo'lgan yoshlar o'rtasida Mudofaa vaziri kubogining mahalla bosqichi bo'lib o'tdi.

Musobaqa Termiz garnizoni harbiy xizmatchilarining ko'rgazmali chiqishlari bilan boshlandi. Shundan so'ng, nuroniy otaxonlar qadriyatlarimizga xos tarzda kurash usullarini namoyish etgan holda bellashuvni boshlab berdilar.

Termiz shahrining 37 mahallasi yoshlarini saralagan ushbu musobaqa g'oliblari munosib ravishda taqdirlandi. Ularga diplom, medal hamda estalik sovg'alarni Janubiy operativ qo'mondonligi boshlig'i polkovnik Po'latjon Sativaldiev topshirdi.

Mudofaa vaziri kubogi uchun milliy kurash va tosh ko'tarish sport o'yinlari viloyatning boshqa tumanlarida ham davom etmoqda.

Image not found or type unknown



Image not found or type unknown



Image not found or type unknown



Image not found or type unknown



Image not found or type unknown

